

Farzand tarbiyasida oilaviy muhitning psixologik ta'siri

Gavharoy Abdivohid qizi Tursunbayeva
gtursunboyeva6@gmail.com
NamDPI

Annotatsiya: Ushbu maqolada farzand tarbiyasida oilaviy muhitning psixologik ta'siri chuqur tahlil etiladi. Unda ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sifati, oiladagi emotsional qo'llab-quvvatlash darajasi hamda ziddiyatli vaziyatlarning bolalar shaxsiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada oilaviy tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etishning psixologik omillari ko'rsatilib, sog'lom psixologik muhitni shakllantirishga doir amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari pedagoglar, psixologlar, ota-onalar va oilaviy tarbiya masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: farzand tarbiyasi, oilaviy muhit, psixologik ta'sir, bolaning emotsional rivoji, ijtimoiy o'zaro ta'sir, tarbiyaviy ta'siri

Psychological influence of family environment on child upbringing

Gavharoy Abdivohid kizi Tursunbayeva
gtursunboyeva6@gmail.com
NamSPI

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the psychological impact of the family environment on child rearing. It scientifically examines the quality of relationships between parents, the level of emotional support in the family, and the impact of conflict situations on the personal development of children. The article highlights the psychological factors for more effective organization of the family upbringing process and provides practical recommendations for the formation of a healthy psychological environment. The results of the study are of practical importance for educators, psychologists, parents, and specialists involved in family upbringing.

Keywords: child rearing, family environment, psychological impact, emotional development of the child, social interaction, educational impact

Kirish. Bugungi kunda jamiyatning barqaror rivoji asosan yosh avlodning ma'naviy barkamolligi, mustaqil fikrlash qobiliyati va ijtimoiy hayotda faol

pozitsiyaga ega bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir. Oilaviy tarbiya esa bolaning shaxsiyati shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, globallashtirish jarayonining kuchayishi, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar oilaviy birlikning zaiflashishiga, ajralishlar va nizolarning ortishiga sabab bo'lmoqda. Natijada, farzandlar ruhiy va psixologik jihatdan zaiflashishi, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, oilaviy muhitning bolalar tarbiyasiga psixologik ta'siri va uning sifatini yaxshilash yo'llarini o'rganish bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar, psixologik qo'llab-quvvatlash, oiladagi nizolar va konfliktlarning bolalar rivojiga ta'siri tahlil qilinadi hamda sog'lom oilaviy muhitni shakllantirishga doir tavsiyalar taqdim etiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, ajralishlar darajasi yillik o'rtacha 4% ga oshgan. Bu holat bevosita farzandlarning psixologik farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligi oila tarbiyasining sifatini belgilovchi eng muhim omillardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi. Bola tarbiyasida yuzaga keladigan ko'plab muammolar, asosan, ota-onalarning farzand psixologiyasi, yosh davrlari rivojlanish xususiyatlari hamda tarbiyaviy yondashuvlar bo'yicha yetarli bilimga ega emasligidan kelib chiqadi.


Shu o'rinda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini yoda olamiz, "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladi.¹ Yuqorida keltirilgan fikrlarda ta'kidlanganidek, yoshlarning odob-axloqi, dunyoqarashi va hayotga munosabati, avvalo, oilada shakllanadi. Zamon o'zgarishi tabiiy jarayon, ammo yosh avlodning ma'naviy negizi, milliy qiyofasi va o'zligini saqlab qolishida eng kuchli omil - bu tarbiyadir. Farzand qaysi davrda ulg'aymasin, qanday axborot oqimlari ichida yashamasin, uning qalbida "Biz kimmiz? Qaysi ulug' ajdodlarning davomchisimiz?" degan g'urur uyg'oq bo'lsa, u hech qachon o'zligini yo'qotmaydi. Bunday g'urur va mas'uliyat esa, avvalo, oila bag'rida, ota-onaning shaxsiy namunasida, uy ichidagi mehr, hurmat, muloqot madaniyati va qo'yilgan ma'naviy mezonlar asosida shakllanadi. Demak, bugungi tez sur'atda o'zgarayotgan hayot sharoitida ham

¹ Mirziyoyev Sh.M yoshlar tarbiyasi-eng muhim masalalardan.<https://www.standart.uz/ru/news/view?id=963>

farzandni barkamol inson sifatida voyaga yetkazishning eng muhim mezonlari - oilada sog'lom muhit yaratish, ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligini oshirish, bolaga mehr, e'tibor, mas'uliyat va to'g'ri yo'l-yo'riq berishdir. Shuning uchun ham oila tarbiyasi faqat shaxsiy mas'uliyat emas, balki jamiyatning kelajagini belgilovchi strategik vazifadir. Farzandning har bir so'zi, odati, xulqi - oilaning davomidir. Ota-ona shuni unutmasligi lozimki, "Biz o'zimiz qanday bo'lsak, farzandlarimiz ham shunday bo'ladi". Shu ma'noda, yoshlarning ma'naviy kamoloti va milliy g'ururini tiklashning eng ishonchli yo'li - oilada sog'lom tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Asosiy qism. Oila jamiyatning eng kichik ijtimoiy bo'g'ini bo'lib, insonning shaxs sifatida shakllanishi avvalo oilaviy muhitda boshlanadi. Farzandning dunyoqarashi, axloqiy me'yori, hissiy kechinmalari, ijtimoiy xulq-atvori va kommunikativ ko'nikmalari birinchi navbatda oilada shakllanadi. Shuning uchun ham oilaviy muhitning psixologik jihatdan sog'lom bo'lishi farzand tarbiyasining samaradorligida muhim o'rin tutadi.

Oilaviy muhit - bu oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, psixologik muloqot, hissiy qo'llab-quvvatlash, qadriyatlar tizimi va tarbiya uslublaridan tashkil topgan ijtimoiy-psixologik makondir. Uning shakllanishiga quyidagilar ta'sir etadi: Oila bolada dastlabki ijtimoiy tajribani shakllantiradi, unda dunyoqarash, xulq-atvor me'yori, qadriyatlar, axloqiy me'yori paydo bo'ladi. Agar oilada o'zaro hurmat, mehr-oqibat va adolat hukm sursa, bola ham o'sha ruhda voyaga yetadi. Aksincha, nizolar, qo'pollik, befarqlik bo'lsa, bu xatti-harakatlar bola xarakterida aks etadi.



1-rasm. Oilaviy muhitni belgilovchi asosiy psixologik-pedagogik omillar

Farzand tarbiyasida oilaviy muhitning psixologik ta'siri nihoyatda kuchli bo'lib, u shaxsning butun umriga ta'sir ko'rsatadi. Mehrli, e'tiborli, samimiy va barqaror oilaviy muhit farzandning barkamol shaxs bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Shu bois, har bir oila farzand tarbiyasini ongli, mas'uliyatli va ilmiy asosda tashkil etishi lozim. Pedagogik savodxonlik deganda ota-onaning farzand tarbiyasida qo'llaniladigan metod va uslublarni bilishi, o'sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlariga mos talablarga rioya qilishi tushuniladi. Masalan, kichik yoshdagi

bolaga buyruq ohangida gapirish noto'g'ri, unga tushuntirish, amaliy ko'mak, rag'bat berish samaraliroq bo'ladi. Shuningdek, ota-ona bolaning ijobiy xatti-harakatlarini e'tirof etib, maqtash orqali unda o'ziga ishonch tuyg'usini shakllantiradi.

Farzand tarbiyasida psixologik yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Bolaning emotsional holatini inobatga olish
- Uning shaxsiy hududi va fikrini hurmat qilish
- Konflikt holatlarni to'g'ri boshqarish
- Oila ichida sog'lom muloqot muhitini yaratish

Bola shaxsini kamolga yetkazish uchun oiladagi tarbiyaviy jarayonni pedagogik madaniyat asosida tashkil eta olish juda muhimdir. Ota-onalar bolalarga ularga qanday munosabatda bo'lishasuk va ularni qanday tarbiyalashsa, bu bolalarning o'zlarini qabul qilishlariga va boshqa insonlar bilan munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi oilalarda tarbiyalangan bolalar ko'pincha o'ziga bo'lgan ishonchlarini rivojlantiradilar va ijtimoiy munosabatlarda faol bo'lishadi. Boshqa tomondan, oiladagi ziddiyatlar, stress va tasavvurlar bolalarda xavotir, tushkunlik va ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin. Psixologik tenchlikka ega bo'lmagan oilalarda tarbiyalangan bolalar, ko'pincha o'z hissiyotlarini ifoda etishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Sog'lom muloqot - to'g'ri tarbiyaning kaliti

Ota-ona sinchkov psixolog, nozik didli pedagog, bolaning kelajagini yaratuvchi bashoratgo'y bo'lishi lozim. Agar ota-ona boladagi iste'dod kurtaklarini o'z vaqtida sezib, ularning rivojlanishiga sharoit yaratib bera olsa, bola shaxsining kamol topishiga katta yo'l ochadi.² Ota-ona farzandi bilan ochiq, samimiy va teng huquqli muloqotda bo'lishi lozim. Bola o'z fikrini erkin ayta olishi, xatolari uchun kamsitilmasligi tarbiya muhitini ijobiy kuchaytiradi. Tarbiyning har bir qismi tug'ilishdan yetti yoshgacha avval ota-ona zimmasiga tushadi. Sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha maktab va madrasa zimmasiga, keyin umrining oxirigacha odamning o'z boshiga tushadi.³

Demak, tarbiya jarayoni uzluksiz va bosqichma-bosqich kechadigan murakkab hayotiy maktabdir. Insonning tug'ilganidan yetti yoshgacha bo'lgan davrida uning ruhiy olami, xulqiy poydevori va hayotga ilk munosabati, avvalo, ota-onaning shaxsiy namunasida shakllanadi. Bu davrda oiladagi har bir so'z, har bir muhit, har bir muomala bola uchun hayotiy mezoniga aylanadi. Sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha bo'lgan yosh oralig'ida esa ta'lim muassasalari - maktab va boshqa tarbiyaviy tashkilotlar bolaning dunyoqarashini kengaytirish, ilmiy bilim va ijtimoiy tajribasini boyitishda muhim o'rin egallaydi. O'qituvchi, ustoz va murabbiylar

² Mavlonova R, Normurodova B, Rahmonqulova B, «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» o'quv qo'llanma, Toshkent: «Tib kitob» nashriyoti, 2010

³ Abdurauf Fitrat Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. Ikkinchi nashr, T., "Ma'naviyat" 2000

bolaning fikrlashi, odobi, kasbiy yo'nalishi va jamiyatga moslashuvida yo'lboshchi bo'lib xizmat qiladi. Ammo tarbiyaning eng yuksak bosqichi - bu insonning o'zini tarbiyalay olish darajasidir. Yigirma yoshdan keyin shaxs o'z xatti-harakatlari uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi; o'z fe'l-atvorini o'zi nazorat qiladi, o'zini takomillashtiradi, hayotdan o'rganadi. Shuning uchun tarbiya hech qachon yakunlanmaydi - u umr bo'yi davom etadigan jarayon bo'lib, insonning o'z ustida ishlashi bilan mukammallashadi. Ammo farzand voyaga yetguniga ya'ni oq va qorani ajratguniga qadar bu masala oila zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Shunday qilib, farzand tarbiyasidagi asosiy vazifa - avvalo, oilada to'g'ri muhit yaratish, so'ng ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ma'naviy, axloqiy va ilmiy poydevorni mustahkamlash, keyinchalik esa shaxsning mustaqil ravishda o'zini tarbiyalab, hayotda to'g'ri yo'l tanlashiga sharoit yaratishdan iboratdir.

L.S.Vygotskiy bola psixikasi rivojlanishida kattalarning rahbarligi hal qiluvchi o'rin tutishini ta'kidlab, shunday deydi: "Bola o'z taraqqiyotining yaqin rivojlanish zonasidan kattalarning pedagogik yordami orqali o'tadi. Ota-onaning to'g'ri ko'magi bola imkoniyatlarini kengaytiradi." Bola katta bo'lguniga qadar turli yosh davrining turli jarayonlarini boshidan kechiradi. U yosh davrining tanglik holatiga tushganida unga ko'makch vazifasini ota-onasi bajaradi. Demak, L.S.Vygotskiy ta'kidlaganidek, bolaning psixik rivojlanishida kattalarning yo'nal- tiruvchi rahbarligi nihoyatda muhimdir. Bola ulg'ayish jarayonida turli yosh davrlariga xos o'zgarishlarni boshidan kechiradi. Har bir yosh bosqichi o'ziga xos ehtiyoj, qiyinchilik va psixologik o'tish davrlariga ega bo'lib, bunday paytlarda bola ko'proq ko'mak va yo'l-yo'riqqa muhtoj bo'ladi. Aynan shunday vaziyatlarda ota-onaning sabr bilan tushuntirishi, ruhiy qo'llab-quvvatlashi, mehr va e'tibor berishi uning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ota-onaning oqilona yordami bolaning shaxs sifatida shakllanishida tayanch bo'lib xizmat qiladi: bola o'zida ishonch hissini his etadi, qiyinchiliklarni yengish ko'nikmasiga ega bo'ladi, muomala, tafakkur va xulqiy fazilatlarini barqarorlashadi. Demak, bola uchun eng birlamchi tarbiyachi - bu oiladir. Ota-onaning mehribon, oqilona va izchil munosabati bolaning psixologik barqarorligining, salohiyati ochilishining hamda kelgusida mustaqil hayotga tayyorlanishining asosini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, farzand inson hayotining ma'naviy mazmuni, nasl davomiyligini ta'minlovchi hamda oilaning mustahkamligini belgilovchi eng muhim bo'g'indir. Solih, odobli va komil farzand ota-onaning baxti, oilaning faxri va ikki dunyo saodatiga yetaklovchi bebaho ne'mat sifatida qadrlanadi. Islomiy manbalarda farzandlar "jannat rayhonlari" deb ta'riflanishi bejiz emas. Zero, farzandning ota-onaga hurmatli, itoatkor, xushxulq, ma'rifatli va ezgu fazilatlar sohibi bo'lib voyaga yetishi oilaviy tarbiya samaradorligining eng yorqin ifodasidir. Ana shunday tarbiya

natijasida voyaga yetgan farzandgina ota-onasiga duoi-xayr, shodlik va baraka olib keladi.

Shunday qilib, ota-onalardagi pedagogik-psixologik bilimlarning yetarli darajada bo'lishi farzand tarbiyasining to'g'ri va samarali yo'lga qo'yilishida katta ahamiyatga ega. Oila muhitida mehr, ishonch, hurmat va qo'llab-quvvatlash qadriyat sifatida shakllanganda, bola har tomonlama barkamol shaxs bo'lib voyaga yetadi. Shu sababli ota-onalar muntazam ravishda o'z pedagogik va psixologik bilimlarini yangilab borishlari, tarbiya jarayoniga ongli va mas'uliyatli yondashishlari zarur.

Farzand tarbiyasida sog'lom oilaviy muhit yaratish bo'yicha tavsiyalar:

1. Har kuni kamida 30 daqiqa suhbat va emotsional aloqa qilish.
2. Bolaning fikrini tinglash va qadrlash.
3. Ota-onaning o'z xulq-atvorida namuna bo'lishi.
4. Oilada majburiy tanbeh emas, ijobiy rag'bat ustuvor bo'lishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi mavzusidagi nutqi. - Toshkent, 15 iyun 2017 y.
2. Mavlonova R, Normurodova B, Rahmonqulova B, «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» o'quv qo'llanma, Toshkent: «Tib kitob» nashriyoti, 2010. 331bet
3. Abdurauf Fitrat Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. Ikkinchi nashr, T., Ma'naviyat.2000 B.62,110bet.
4. Выготский Л. С. Психология развития ребенка. - Москва: Педагогика, 1984. - 256 с.
5. Alimov U. Oilada farzand tarbiyasi. Тошкент: «Мовароуннахр» nashriyoti. 2014. - 456 b.
6. Hakimova S. (2024) Psychology of social relations and communication. American Journal of sciences and humanity research. 4(05), C 85-92.
7. Orifboeva, D. D. (2016). O'QITISH FAOLIYATI JARAYONIDA Stressni oldini olish. NovaInfo. Ru, 3(41), 217-220.
8. Орифбоева, Д. Д., & СРЕДНЕЙ, О. ШКОЛЕ//Форум молодых ученых. 2017.№ 6 (10). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-uchebno-poznavatel'nogo-protssesa-v-sredney-shkole> (дата обращения: 31.03. 2025).
9. Oribboyeva, D. (2024). BULLING O'SMIRLARDA DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1 (12), 115-117.
10. Орифбоева, Д. Д. (2025). Н Б. Каримова Психологик тадқиқотларда буллинг муммосининг гендер тахлили. Science and Education, 3.
11. Орифбоева Д. Д. ОПТИМИЗАЦИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ // Форум молодых ученых. 2017. №6 (10).

URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-uchebno-poznavatel'nogo-protsessa-v-sredney-shkole> (дата обращения: 21.11.2025).

12. Ориббоева, Д. Д. (2025). ММ Адашалиева ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. Ёш олимлар ахборотномаси»-«Вестник молодых ученых.

13. Oribboyeva, D. D., & Assertiv, S. B. Q. G. A. (2024). xulq shakllanishining o'ziga xosligi. Science and Education, 2.

14. Ориббоева, Д. Д. (2019). THE INFLUENCE OF SOCIAL COMPETENS ON PROFESSIONAL CHOICE. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(9), 256-261.

15. Oribboyeva , D. (2024). BULLING O'SMIRLARDA DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(12), 115-117. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/58095>